



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 5-sinflar uchun
ona tili fanidan III chorak

DARS
ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 5-sinf ona tili fanidan III chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat. Ma‘nodosh so‘zlar	1		
2.	“Hayitlik” matni ustida ishlash. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Shakldosh so‘zlar	1		
3.	Matn ustida ishlash. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari	1		
4.	Otlarning lug‘aviy (son, erkalash va kichraytirish) shakllari	1		
5.	E‘lon matnlari ustida ishlash	1		
6.	F va V undoshlari talaffuzi va imlosi. Q va G‘ undoshlari talaffuzi va imlosi	1		
7.	J undoshi talaffuzi va imlosi. E‘lon yozish	1		
8.	“Pahlavonning beshigi” audiomatni. Tinglab tushunish topshiriqlari ustida ishlash	1		
9.	Rasmiy uslubda og‘zaki nutq. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Otlarning lug‘aviy shakllari	1		
10.	Rasmiy uslubda o‘zi haqida ma‘lumot berish (og‘zaki)	1		
11.	Tarjimayi hol matni bilan tanishish. Tarjimayi hol yozish.	1		
12.	Bob yuzasidan takrorlash	1		
13.	6-nazorat ishi	1		
14.	Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat. Atamalar lug‘atini tuzish	1		
15.	“Qiziqarli tomoshalar” matni ustida ishlash	1		
16.	X va H undoshlari talaffuzi va imlosi. Matn ustida ishlash	1		
17.	“Sehri qalpoqcham bo‘lsaydi...” matni ustida ishlash	1		
18.	Paronim so‘zlar. Matn ustida ishlash	1		
19.	Z va S undoshlari talaffuzi va imlosi. Sh va Ch undoshlari talaffuzi va imlosi	1		

20.	“Bastakor” she’ri bilan tanishish. Iboralar bilan ishlash	1		
21.	Sifat so‘z turkumi	1		
22.	Kulolchilik san’ati haqida videolavha. Tinglab tushunish topshiriqlari ustida ishlash	1		
23.	Tub va yasama sifatlar	1		
24.	“Bizning teatr” loyihasi taqdimoti	1		
25.	Bob yuzasidan takrorlash	1		
26.	7-nazorat ishi	1		
27.	Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat. O‘yin nomlari imlosi	1		
28.	“An’anaviy bolalar o‘yinlari” matni ustida ishlash. Ma’nodosh so‘zlar	1		
29.	Shevaga xos so‘zlar	1		
30.	“Tangalik bolalar” filmidan videolavha. Tinglab tushunish topshiriqlari ustida ishlash.	1		
31.	O‘yin haqidagi videolavha. Sana (yil, oy, kunni ifodalash) imlosi.	1		
32.	Gapning bosh bo‘laklari	1		
33.	Qo‘sh va qator undoshlar imlosi	1		
34.	“Zakovat” intellektual o‘yini” matni bilan tanishish. Son so‘z turkumi	1		
35.	Infogarfika ustida ishlash. Foizga oid ko‘rsatkichlar imlosi	1		
36.	O‘lchov so‘zlar	1		
37.	Rasm asosida hikoya tuzish	1		
38.	Bob yuzasidan takrorlash	1		
39.	8-nazorat ishi	1		
40.	Xato va kamchiliklar ustida ishlash	1		

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat. Ma’nodosh so‘zlar

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha bilim berish, grammatik qoidalarni o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ravon yozishga o‘rgatish va og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, jamoada ishlash madaniyatini tarbiyalash, intizom va mas’uliyat hissini oshirish va milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurni o‘stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va tez va to‘g‘ri fikr bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– darslik materiallari va undan tashqari manbalar (televizor, radio)dan ma’lumotlarni topa olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi :

– mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilimni, ko‘nikmalarini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

No	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.





1. Rasmlarda qanday vaziyatlar aks etgan?
2. O'zbek millatiga xos bo'lgan yana qanday urf-odatlarini bilasiz?
3. Ayting-chi, siz ham hashar, bemorning holidan xabar olish yoki qo'shnilarga taom ulashish bilan bog'liq vaziyatlarning ishtirokchisi bo'lganmisiz? Bunday paytda odamlar qanday mazmundagi so'z yoki gaplardan foydalanishadi?
4. "Sehri so'zlar" deganda nimani tushunasiz? So'zlashuvda ulardan foydalanishning ahamiyati qanday?

Dialoglar qanday vaziyatlarga tegishli ekanini ayting. Har bir vaziyatga xos bo'lgan odob qoidalarini aks ettirayotgan gaplarni aniqlang, ularning mazmunini tahlil qiling.



-Assalomu alaykum. Salomatmisiz?

- Vaalaykum assalom. Ha, shukur, ancha yaxshiman. O'zingiz-chi?

- Biz ham yaxshimiz. Ko'rinishingiz durust.

- Rahmat.

- Hali ko'rasiz, tez orada dardingiz arib, otday bo'lib ketasiz.

- Aytganingiz kelsin. Sog'lik - eng katta boylik, deb bekorga

aytishmagan ekan.



-Assalomu alaykum. Yaxshimisiz, Xadicha xola?

- Vaalaykum assalom, Munixon.

- Bugun uyda ko'k somsa yopdik. Oyim qo'shnilarning ham haqqi bor deb mana buni sizlarga ilinib berib yubordilar.

- Ehhe, juda xursand bo'ldim! Oyingning ham, sening ham qo'ling dard/ko'rmasin! Rahmat, qizim!

- Osh bo'lsin, xola. Men bora qolay, biznikiga ham chiqib turing.

- Uydagilaringga salom ayt, qizim.



-Assalomu alaykum. Hormang, Po'lat ota!

- Bor bo'ling, bo'tam.

- Sizga bir yordam qilaylik deb qamishdan bel boglab keldik. Bizga nima xizmat?

- Juda yaxshi bo'libdi-da! Ahillikda gap ko'p-da, bolam.

- Ha, endi qo'shnimiznikida yaxshi niyatlar bilan qurilish bo'lyapti-yu, biz hech nima bo'lmaganday turaylikmi, ota?

- Barakalla, tarbiya bergan ota-onangizga rahmat!



O'zbekona urf-odatlar namoyon bo'tadigan vaziyatlardan birini tanlang. Partadoshingiz bilan shu haqda kichik dialog tuzib, yozing.

1-ustundagi so'zlarning o'rnida qo'llash mumkin bo'lgan jummalarni 2-ustundan qidiring. Ularni daftaringizga yozing.

Namuna

Baxtli bo'ling! – Toleyingiz baland bo'lsin! Iqbolingiz ziyoda bo'lsin!

1	2
Baxtli bo'ling!	
Yaxshimisiz?	Hormang! Salomatmisiz? Toleyingiz baland bo'lsin! Minnatdorman!
Baraka toping!	Tashakkur! Barakalla! Iqbolingiz ziyoda bo'lsin! Tuzukmisiz? Ko'p yashang! Omon bo'ling! Rizqingiz butun bo'lsin!
Rahmat!	

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'quvchilarga mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, darslikdagi mashqlarni og'zaki va yozma bajarish, guruhlarda ishlash orqali misollar tuzish.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: She'rni o'qing. Ona bolasini erkalatish uchun qanday ifodalardan foydalangan? Onalar farzandlarini yana qanday so'zlar bilan erkalatishadi? O'qigan kitoblaringiz hamda kattalar yordamida ularni aniqlab, yozing.

Alla

Ko'rar ko'zim, alla-yo,
Suyar so'zim, alla-yo,
Alla, bolam, alla-yo.
Shirin jonim, alla-yo,
Issiq nonim, alla-yo,
Alla, bolam, alla-yo alla,
Do'mboqqinam, alla-yo, alla.
Osmondagi oyim, alla,
Mening shirin choyim, alla,
Alla, bolam, alla,

Jonim bolam, alla.
Alla, bolam, alla-yo.
Sahar chog'i bo'libdi,
Ichim nurga to'libdi.
Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.
Jigarimning porasi, alla,
Ko'zginamning qorasi, alla.
Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.



O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Hayitlik” matni ustida ishlash. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.

Shakldosh so‘zlar

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha bilim berish, grammatik qoidalarni o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ravon yozishga o‘rgatish va og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, jamoada ishlash madaniyatini tarbiyalash, intizom va mas‘uliyat hissini oshirish va milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurni o‘stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va tez va to‘g‘ri fikr bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

– adabiy til va nutq me‘yorlariga amal qilish, badiiy asarlarni tushunish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish, turli vaziyatlarda o‘zini tuta olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

– shaxsiy rejalarni tuza olish, turli jadvalli ma‘lumotlarni o‘qiy olish, hisobkitob bilan ish yuritish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

1. Hayit bayrami haqida nimalarni bilasiz?

2. O‘zbek oilalarida Hayit bayramini nishonlash uchun qanday tayyorgarlik ko‘riladi?

Hayitlik

Bayramlar ko‘p edi. Ayniqsa, biz bolalar ohorli libos kiyib, kattalar hayitlik berib quvontiradigan kunni zoriqib kutardik. Ro‘za oyi boshlanishi bilan: “Ona, hayitga necha kun qoldi?” - deb barmoqlarini sanayverib, bezor qilardim. Eng qizig‘i, o‘sha qutlug‘ kunda yangi ko‘ylak, iroqi do‘ppini kiyib, mayda o‘rilgan sochlarimizni bir-birimizga ko‘zko‘zlab ko‘chaga o‘ynagani chiqardik. Va nihoyat orziqib kutilgan kun keldi. Erta tongda onam tikib bergan ko‘ylakni kiyib, ko‘chaga chiqdim. Tong yorishmay supurilib, suvlar sepilgan ko‘cha-hovlilardan tuproqning yoqimli isi kelardi. Quvonib chopqillab o‘ynab yurgan bolalar safiga qo‘shildim. Bizdan besh-olti hovli narida yashaydigan tengdoshim Komila kichkina barmog‘iga qizil ip bog‘lab olgandi. “Nega barmog‘ingga ip boylab olding?” - degan savolimga: “Onam ko‘ylak olib berolmadim, hech bo‘lmasa, barmog‘ingga yangi ip boylab olgin, yangi ko‘ylak kiygandek bo‘lasan, dedi”, - deya ip bog‘langan barmoqchasiga ma’yusgina termilib javob berdi. Qushlar, baliqchalar rasmi tushirilgan ko‘ylagimga havas bilan qarab turgan dugonamga rahmim keldi. O‘sha tobda chiroyli ko‘ylak kiyib olganimdan xijolat ham bo‘ldim. Komilaning dadasi mehribon kishi edi. Ishdan qaytayotgan payti ko‘chada o‘ynab yurgan bolalarga kissasidan saqichmi, qurutmi berib, boshini silab erkalab qo‘yardi. Xastalik tufayli bevaqt olamdan o‘tdi. Bir kuni onam ular haqida gapirganda eshitib qolgandim:

- Yoshgina umri xazon bo‘lgan odamgayam uvol, bir etak bolasi bilan beva qolgan ayolgayam qiyin bo‘ldi. Erining topganiga qanoat qilib, dalaga chiqib yerga ketmon urmagan juvon end! kesakka qoqilib yiqilsayam, uzun sochlari tuproqni supursayam, mehnat qilishi kerak. Mahalla ahli qo‘limizdan kelganicha yordam berib, bolalari qatorga qo‘shilguncha koriga yarab turishimiz kerak. Hayit namozidan qaytayotgan bobosi yoki dadasining bag‘riga oshiqayotgan bolalar izidan mung‘ayib qarab turgan Komilaning yoniga borib qo‘lidan mahkam tutdim. “Dadam hozir qaytadi. Ikkalamizga shirinlik, hayitlik beradi”, - dedim ishonch bilan. Ammo kelayotgan odamlar orasida dadam ko‘rinmasdi. Hamma tarqaldi. Qani edi dadam ham tezroq kela qolsa... Dugonam ikkimiz yo‘lga termilganicha ancha o‘tirdik. Shu payt ko‘cha boshida dadamning qorasi ko‘rindi. Ikkalamiz teng yugurdik. Boshimizni silab, bag‘riga bosgan dadam qo‘lidagi xaltaning birini Komilaga tutdi. Keyin unga qarab:

- Qizim, buni uyga kirib, ochib qarang. Sizga ko‘ylakcha oldim. Agar loyiq kelmasa, do‘kondan alishtirib beraman, - dedi. So‘ng menga qarab: “Qizijon, sizga onangiz yangi ko‘ylak tikib berdi, shuning uchun kelasi bayramda xuddi shunaqasidan olib beraman”, - dedi. Xursand edim. Dadamning qulog‘iga sekingina: “Rahmat, dadajon”, - deya pichirladim.

Munavvara Usmonova

Matndagi iboralar qanday ma‘no ifodalayotganini ustozingiz yordamida izohlab, yozing.

Namuna

ko‘zko‘zlamoq – maqtanmoq, namoyish etmoq

1. Eng qizig‘i, o‘sha qutlug‘ kunda yangi ko‘ylak, iroqi do‘ppini kiyib, mayda o‘rilgan sochlarimizni bir-birimizga **ko‘zko‘zlab**, ko‘chaga o‘ynagani chiqardik.
2. Xastalik tufayli **bevaqt olamdan o‘tdi**.
3. **Yoshgina umri xazon bo‘lgan odamgayam uvol**, bir etak bolasi bilan beva qolgan ayolgayam qiyin bo‘ldi.
4. **Mahalla ahli qo‘limizdan kelganicha yordam berib**, bolalari **qatorga qo‘shilguncha** koriga yarab turishimiz kerak.

5. Shu payt ko'cha boshidan dadamning qorasi ko'rindi.

Matndan olingan so'zlarni izohi bilan moslab yozing.

ohorli	hayitlik	iroqi	o'sha tobda
ma'yuslik	juvon	kori	mung'aymoq

1	Hayit bayrami munosabati bilan beriladigan sovg'a
2	turmush qurgan yosh ayol
3	tutilmagan, yangi, kiyilmagan
4	tushkun, g'amgin holat
5	shu paytda, shu vaqtda, o'sha mahalda
6	kashtado'zlikda to'rga ip yoki ipaklarni kesishtirib gul tikish usulidagi bezak shakli
7	g'amgin, tushkun holatda bo'lmoq
8	hojat, ehtiyoj

1. Nima uchun muallif bolaligida Hayit bayramini alohida zoriqib kutar edi?
2. Komila nima sababdan barmog'iga qizil ip boglab olgan edi?
3. Nega hikoya qahramoni chiroyli ko'ylak kiyib olganidan xijolat bo'la boshladi?
4. Muallifning qo'shni qiz Komilaga munosabatini izohlang. Bolaligidagi voqealar unda qanday taassurot qoldirgan edi?

Matndan olingan gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang. Shunday mazmundagi gaplarga bittadan misol yozing.

Matndan olingan gaplar	Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi	Men tuzgan jumla
Tong yorishmay supurilib, suvlar sepilgan ko'cha-hovlilardan tuproqning yoqimli ishi kelardi.
Nega barmog'ingga ip boylab olding?
Qizim, buni uyga kirib, ochib qarang.
Qani edi dadam ham tezroq kela qolsa!..

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'quvchilarga mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, darslikdagi mashqlarni og'zaki va yozma bajarish, guruhlarda ishlash orqali misollar tuzish.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Quyidagi shakldosh so'zlar ma'nolaridagi farqni aniqlang. Har ikkala ma'no asosida gaplar tuzib, yozing.

Namuna

Quyma – quyish yo'li bilan tayyorlangan, quyilgan.

Quyma – quyish ish-harakatini bajarmaslik buyrug'i.

olmá – ólma

ko'zlár – kó'zlar

bog'lár – bó'g'lar

O'IBDO':

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

99 listdan iborat ona tili fanidan 5-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislari**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11. O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12. Psixolog hujjatlari**
- 13. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15. Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**